



Ingliz tili darslarida muloqotga kirishish istagiga ta'sir etuvchi psixolingvistik omillar

Axmedova Matluba Ibragimjanovna –

Farg'ona davlat universiteti dotsenti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: akhmedovamatluba8@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1532-0133>

G'offorova Diyora Muzaffarovna –

Farg'ona davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tili darslarida o'quvchilarning ingliz tilida muloqotga kirishish istagiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy psixolingvistik omillar tadqiq etiladi. Maqolaning maqsadi til o'rganuvchilarning dars jarayonidagi passivligini kamaytirish va ularning nutqiy faolligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi ichki va tashqi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida til xavotiri, o'z-o'ziga bo'lgan ishonch, motivatsiya va sinf xona muhiti kabi omillarning muloqot jarayoniga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nutqiy faollik, integratsiya, muloqot, xavotir, ishonch, qo'rquv, psixolingvistika, nutqiy nuqsonlar, lug'at.

Психолингвистические факторы, влияющие на готовность к общению на уроках английского языка

Аннотация. В данной статье исследуются основные психолингвистические факторы, влияющие на желание учащихся вступать в общение на английском языке на уроках английского языка. Цель статьи заключается в выявлении внутренних и внешних факторов, обуславливающих пассивность изучающих язык в ходе учебного процесса и препятствующих повышению их речевой активности. В ходе исследования проанализировано влияние таких факторов, как языковая тревожность, уверенность в себе, мотивация и атмосфера в классе, на процесс общения.

Ключевые слова: речевая активность, интеграция, общение, тревожность, уверенность, страх, психолингвистика, речевые нарушения, словарный запас.

Psycholinguistic factors affecting the willingness to communicate in english language classes

Annotation. This article examines the main psycholinguistic factors that influence students' willingness to communicate in English during English language lessons. The purpose of the article is to identify the internal and external factors that contribute to

learners' passivity in the classroom and hinder the development of their speech activity. The study analyzes the influence of such factors as language anxiety, self-confidence, motivation, and classroom environment on the communication process.

Keywords: *speech activity, integration, communication, anxiety, confidence, fear, psycholinguistics, speech disorders, vocabulary.*

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslik va pedagogikada xorijiy tillarni o'qitishning kommunikativ yondashuvi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, til o'rganuvchilarning grammatik va leksik qoidalarni yaxshi o'zlashtirganligi har doim ham ularning real muloqotda erkin so'zlasha olishini kafolatlamaydi. Ushbu fenomen psixolingvistikada "muloqotga kirishish istagi" tushunchasi bilan tushuntiriladi. Muloqotga kirishish istagi – bu til o'rganuvchining aniq bir vaqtda va ma'lum bir shaxs bilan maqsadli ravishda muloqotga kirishishga bo'lgan tayyorlik darajasidir. Ingliz tilini o'rganish jarayonida nafaqat grammatik qoidalar va lug'at boyligini egallash, balki o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqotga kirishish istagi konsepsiyasi ingliz tilini o'rganish sohasida nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, o'quvchilarning tilni amaliy qo'llashga bo'lgan tayyorgarligi va motivatsiyasini o'rganishga qaratilgan. Bu konsepsiya o'quvchilarning til o'rganish jarayonidagi faolligini ta'minlash va ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Muloqotga kirishish istagi (WTC- chet tilida faol muloqot qilishga bo'lgan psixologik tayyorgarlik) konsepsiyasi ingliz tilini o'rganish psixologiyasining eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chet tilida faol muloqot qilishga bo'lgan psixologik tayyorgarlik konsepsiyasini birinchi marta McCroskey va Baer tomonidan 1985-yilda ona tilidagi muloqot jarayonini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan. Ular Chet tilida faol muloqot qilishga bo'lgan psixologik tayyorgarlikni shaxsning xarakteriga bog'liq, vaqt o'tishi bilan nisbatan barqaror qoladigan xususiyat sifatida ko'rdilar. Bu konsepsiya o'quvchining muayyan vaqt oralig'ida, muayyan shaxs bilan muloqot qilish istagini ifodalaydi[1].

Til o'rganish ham o'quvchilarning yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, kichik sinf o'quvchilari kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Chunki til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyilik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, katta sinf o'quvchilariga qaraganda quyi sinf o'quvchilar vaqtinig ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, quyi sinf o'quvchilari ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamalik kerak. Aks holda chet tillarini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish mumkin. Shu bois pedagog doimiy tarzda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ijtimoiy moslashuvi, psixologik holatini nazardan chetda qoldirmasligi lozim. Chunki chet tilidagi nutqqa ijobiy psixologik munosabatni shakllantirish kerak. Chet tilini o'rgatish bola shaxsini insonparvarlik va gumanitar rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Bunga o'rganilayotgan til mamlakatlari madaniyati bilan tanishish yordam beradi; xushmuomalalik, xayrixohlikni tarbiyalash; o'zini ma'lum bir jins va yoshdagi shaxs sifatida anglash. Chet tilini o'rganish, shuningdek, o'quvchining fikrlashi, mantiq, xotira, tasavvurini rivojlantirishga, uning kommunikativ va kognitiv qobiliyatlarini takomillashtirishda tajribali ingliz tili o'qituvchilarining o'rni beqiyos.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tili darslarida muloqotga kirishish istagini shakllantirishda pedagogik va kontekstual omillar psixolingvistik jarayonlar orqali bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining xatti-harakatlari, xususan, yaqinlik bilan bog'liq verbal va noverbal signallar o'quvchilarning psixologik tayyorligini aniq bashorat qiladi. Xitoy EFL kontekstida o'tkazilgan keng qamrovli tadqiqot shuni ko'rsatdiki, psixolingvistik jihatdan, o'qituvchining yaqinlik xatti-harakatlari

o'quvchilarning "affektiv filtr"ni pasaytiradi va kognitiv resurslarning tilga ishlov berishga yo'naltirilishini osonlashtiradi. O'qituvchi o'z o'quvchilariga e'tibor qaratganda, ularning fikrlarini tushunishga harakat qilganda va ularning qobiliyatlariga ishonch bildirganda, o'quvchilar o'zlarini xavfsiz his qilishadi va bu holat o'ziga ishonchni oshiradi[2].

Chet tilida faol muloqot qilishga bo'lgan psixologik tayyorgarligiga ta'sir qiluvchi omillar ichki va tashqi omillarga bo'linadi. Ichki omillarga o'quvchining motivatsiyasi, o'z-o'ziga ishonchi, til o'rganish tajribasi, shaxsiy xususiyatlari kiradi. Tashqi omillarga o'quv muhiti, o'qituvchi uslubi, sinfdoshlar bilan o'zaro aloqalar, o'quv materiallari va dasturlar kiradi. Bu omillarni to'g'ri tushunish va boshqarish orqali o'quvchilarning chet tilida faol muloqot qilishga bo'lgan psixologik tayyorgarligini oshirish mumkin. Oujin Kang o'zining "Muloqotga kirishish istagining dinamik tabiati" nomli ishida muloqotga kirishish istagini turg'un belgi emas, balki dinamik va o'zgaruvchan holat deb ta'riflaydi. Masalan, darsning boshida o'quvchi juda faol bo'lishi mumkin, lekin o'qituvchi murakkab savol berganda yoki kutilmagan bosim sezganda, bu istagining "dinamikasi" pasayib, u o'zini chetga olishi mumkin. U taklif etgan uchta ustun quyidagicha izohlanadi. Bu yerda "hayajon" ijobiy ma'noda keladi. O'quvchi mavzuga qiziqsa, yangi ma'lumotni yetkazishga ishtiyoqi baland bo'lsa, unda muloqotga kirishish istagi kuchayadi. Agar mavzu zerikarli bo'lsa, hattoki tilni yaxshi bilgan o'quvchi ham sukut saqlashni afzal ko'radi. O'quvchi o'zini muloqot uchun mas'ul deb his qilishi kerak. Masalan, Juftlikda ishlaganda "men gapirmasam, sherigim ishini bajara olmaydi" degan tuyg'u. Dars jarayonida o'z fikrini bildirish orqali guruhga foyda keltirish istagi. Xavfsizlik bu eng muhim omillardan biri. O'quvchi quyidagilarni his qilganda muloqotga oson kirishadi, xato qilishdan qo'rqmaslik; "Xato qilsam, ustimdan kulishmaydi" degan ishonch paydo bo'lsa, psixologik qulaylik; o'qituvchi va tengdoshlar tomonidan bosimning yo'qligini his qilsa, til darajasi yetarli ekanligini bilsa, o'z so'z boyligi (lug'at)ga bo'lgan ishonch. Ushbu nazariya shuni ko'rsatadiki, muloqotga kirishish uchun faqat tilni bilish (grammatika va lug'at) yetarli emas. Shu bois, o'qituvchi darsda, qiziqarli savollar berishi, kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilishi, xatolarga nisbatan xavfsiz muhit yaratishi lozim[2]. Filologiya fanlari doktori Shavkat Xolbekov esa chet tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq qilgan. Uning fikricha, har bir o'quvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega va o'qituvchi bu xususiyatlarni hisobga olib, individual yondashuvni qo'llashi kerak. Sarvinoz Kasimova chet tilini o'qitishda an'anaviy va innovatsion metodlarni taqqoslagan. Uning tadqiqotlarida grammatika-tarjima, tabiiy va to'g'ridan-to'g'ri metodlar, audio-lingual va audio-vizual yondashuvlar, shuningdek, ongli-taqqoslash va kommunikativ yondashuvlar tahlil qilingan. "Chet tilini o'qitish metodlarining evolyutsiyasi asosan bir markaziy muammoni yechishga qaratilgan: o'quvchilarga til birliklarini nafaqat qoidalar sifatida, balki haqiqiy muloqotda ishlatiladigan vositalar sifatida egallatishni ta'minlash lozim"

Kasimova an'anaviy metodlar grammatika va lug'atni tizimli egallashga ko'proq e'tibor qaratgan, keyingi yondashuvlar esa nutqni idrok etish (eshitish/o'qish) va uni ishlab chiqarish (gapirish/yozish) mexanizmlarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga intilgan. O'zbek maktablarida ingliz tilida faol muloqot qilishga bo'lgan psixologik tayyorgarlikni o'rganish va uni oshirish usullarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Psixolingvistik jihatdan, o'quvchi agentligi – bu o'quvchining o'z o'quv jarayonini boshqarish qobiliyati va tayyorgarligi, shu bois uning muloqotga kirishish istagini bevosita ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ingliz tili darslarida muloqotga kirishish istagiga ta'sir etuvchi pedagogik va kontekstual omillar psixolingvistik mexanizmlar orqali amalga oshadi. O'qituvchi yaqinligi, topshiriq asosida o'qitish, o'quvchi mustaqilligi va agentligi, ijtimoiy mavjudlik hamda guruh dinamikasi kabi omillar o'quvchilarning kognitiv resurslarini boshqarish, affektiv holatlarini tartibga solish va monitoring funksiyalarini samarali qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bu omillarni tushunish o'qituvchilarga ingliz tilida faol muloqot qilishga bo'lgan psixologik tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga

yordam beradi. Shuning uchun ingliz tilida faol muloqot qilishga bo'lgan psixologik tayyorgarligini oshirish uchun kommunikativ yondashuv, vaziyatli o'qitish va hamkorlikda o'qitish kabi zamonaviy usullarni qo'llash tavsiya etiladi. Bu usullar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va chet tilini o'rganish samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslarida muloqotga kirishish istagi murakkab psixolingvistik hodisa bo'lib, u nafaqat lingvistik bilimga, balki shaxsning emotsional holatiga ham bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muloqotga kirishish istagini rivojlantirishda nutqiy xavotirni kamaytirish omillari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki, o'quvchilarda xato qilishdan qo'rqish hissi muloqot jarayonidagi asosiy to'siqdir. Tadqiqot doirasida xatosiz muhit yaratish strategiyasi tahlil qilindi. Bunda o'qituvchi o'quvchining nutqidagi xato ustida to'xtatmasdan, fikrning mazmuniga e'tibor qaratishi nutqiy faollikni yanada oshiradi. O'quvchi o'zining ingliz tilidagi kichik yutuqlarini ham his qilishi uning keyingi muloqotga bo'lgan intilishini kuchaytiradi. Zero, Skolding texnologiyasi orqali qiyin topshiriqlarni bosqichma-bosqich yengillashtirish muloqotga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi[3]. Hozirgi kunda zamonaviy darslarda an'anaviy "o'qituvchi-markazlashgan" modeldan "o'quvchi-markazlashgan" modelga o'tish muloqot muhitini tubdan o'zgartirmoqda. Pedagogik tamoyillarga asoslangan "O'qi – tushun – gapir" metodi qo'llanilganda o'quvchilar juftlikda ishlaydi va ularning har birida mazmunning bir qismi bo'ladi. Ma'lumotni to'liq jamlash uchun ular ingliz tilida savol-javob qilishga majbur bo'ladilar. Bu metod muloqotni sun'iylikdan chiqarib, real ehtiyojga aylantiradi. Rolli o'yinlar Hayotiy vaziyatlarni (masalan, aeroportda, xarid qilish, intervyu berish) darsga olib kirish o'quvchining ijtimoiy rollarni egallashiga yordam beradi. Bunda o'quvchi o'z shaxsi nomidan emas, balki "qahramon" nomidan gapirgani uchun psixologik bosim kamayadi. Ayniqsa, raqamli platformalar va dars ichidagi kichik musobaqalar o'quvchida ingliz tilida fikr bildirishga bo'lgan tabiiy qiziqishni uyg'otadi. Dars jarayonida autentik materiallardan foydalanishning metodik samaradorligi hozirgi yosh avlod uchun juda qiziqarli hisoblanadi. Chunki, o'quvchining muloqotga kirishish istagi o'rganayotgan mavzuning dolzarbligiga bevosita bog'liq. Darslikdagi matnlardan tashqari, real hayotdan olingan autentik materiallar (podkastlar, YouTube videolari, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar) tahlil qilinadi. Rasm, qisqa metrajli videolar yoki infografikalar asosida bahs-munozara tashkil etish o'quvchida "gapirishga arziydigan mavzu" borligi haqida tasavvur uyg'otadi. Muammoli vaziyatlar yaratish ya'ni Keys stadi o'quvchilarga biror muammoni (masalan, ekologik muammo yoki sayohat marshrutini tuzish) hal qilish vazifasi berilganda, til muloqot vositasi sifatida o'z-o'zidan ishga tushadi[4]. Ingliz tili darslarida muloqotga kirishish istagi faqatgina lug'at boyligiga bog'liq emas. O'qituvchi tomonidan yaratilgan emotsional xavfsiz muhit va o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi muloqotning asosiy drayveridir. O'quvchilarda muloqot istagini rivojlantirish uchun "Information Gap", "Role Play" va "Cooperative Learning" kabi zamonaviy interfaol metodlardan tizimli foydalanish zarur. Bu metodlar o'quvchini passiv tinglovchidan faol subyektga aylantiradi. Har bir o'quvchining muloqot to'siqlari (so'z yetishmasligi, xavotir) turlicha. Shu sababli, differensiallashgan topshiriqlar berish orqali barcha darajadagi o'quvchilarni muloqotga jalb qilish metodik jihatdan isbotlandi. Amaliy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, nutqiy faollik oshganda, grammatik va fonetik xatolar ustida ishlash tabiiy ravishda osonlashadi, chunki o'quvchida tilni "ishlatish" tajribasi shakllanadi. Kommunikativ metodlar, ingliz tilida og'zaki muloqotni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilar tilni amaliy ravishda o'zlashtiradilar, bu esa ularning muloqot qilish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi[5]. Kommunikativ metodlar orqali o'quvchilar real hayotdagi vaziyatlarda tilni qo'llashni o'rganadilar, u esa ularning o'zaro munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilida og'zaki muloqot zamonaviy jamiyatda ahamiyatli rol o'ynaydi. Bu til, global miqyosda eng keng tarqalgan aloqa vositasi sifatida, turli sohalarda, jumladan, biznes,

ta'lim va madaniyatda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilida samarali muloqot qilish qobiliyati shaxsiy va professional muvaffaqiyat uchun zarurdir. Bu, nafaqat fikrlarni ifoda etish, balki boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatish imkonini ham beradi.

Ingliz tilida og'zaki muloqotni rivojlantirishda kommunikativ metodlar asosida olib borilgan amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ishtirokini oshirish va tilni o'zlashtirish samaradorligini yaxshilash uchun ushbu metodlar muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ yondashuvlar o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Masalan, ingliz tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali muloqotga jalb ilish samarali usul sifatida ko'rilmogda. Bunday yondashuvlar o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish, savollar berish va javoblar olish imkoniyatini beradi[7]. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, guruh ishlari orqali o'quvchilar bir-biridan o'rganadilar va o'zaro fikr almashish jarayonida tilni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, o'quvchilarga o'zaro bahs-munozara o'tkazish imkoniyatini berish, ularning tildagi ishtirokini va muloqotga tayyorgarlik darajasini oshiradi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashish orqali til qoidalarini yaxshiroq tushunadilar va o'zlarining fikrlarini aniq ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, kommunikativ metodlar yordamida o'quvchilar o'rganayotgan tilga bo'lgan qiziqishini oshirish va o'zaro muloqot madaniyatini shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu usullar til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Kommunikativ metodlarning amaliy qo'llanilishi o'quv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Misollar sifatida, guruhli muhokamalar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilar o'zaro muloqot qilish, fikr almashish va tilni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday yondashuvlar til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi, shuningdek, o'quvchilarning o'zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilarning til o'rganish jarayonida faol ishtirok etishlari, ularning muloqot qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.[8] Guruhli muhokamalar va rolli o'yinlar kabi usullar orqali o'quvchilar nafaqat tilni o'rganadilar, balki ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bu yondashuvlar, o'z navbatida, o'quvchilarning o'zaro hamkorlik qilish qobiliyatini kuchaytiradi va ularning o'z fikrlarini ifoda etishiga imkon yaratadi. Kelajakda tadqiqotlar bu metodlarning samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish, shuningdek, ularni turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday qo'llash mumkinligini aniqlashga qaratilishi lozim. Shuningdek, o'qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilishi, interaktiv metodlarni samarali qo'llash bo'yicha tajribalar almashinuvi va o'quv dasturlarining yangilanishi zarur. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning til o'rganish jarayonini yanada boyitadi va ularni kelajakdagi muvaffaqiyatli kommunikatorlar sifatida tayyorlaydi.

Ingliz tili darslarida o'rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab tashkil etiladigan didaktik o'yinlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, til o'rganishga qiziqishini uyg'otadi. O'qishga qiziqish esa bilimlarni puxta o'zlashtirish garovidir. Ingliz tilini o'rgatish mazmuni maktabgacha ta'lim muassasalarida juda qisqa va oson so'zlardan, jumladan boshlanadi. Mazmunni tushunishni o'rgatish sodda, qulay va zarur ko'rgazmalilik asosida olib boriladi. Mana shu yo'l bilan bolalarning so'z boyligi kengayib, chuqurlashib va o'sib borishi ta'minlanadi G. Palmer to'g'ri metod tarafdorlarining ingliz tilini ham xuddi ona tilidek, ya'ni og'zaki nutq o'qish va yozishdan oldin o'rgatilishi kerak degan fikriga qo'shilib, bu masalani birmuncha boshqacharoq talqin qiladi. U bola gapira boshlashdan avval kattalar nutqini eshita borib passiv ravishda material to'plashini nazarda tutib ingliz tilni o'qitishda reproduktiv ish formasidan oldin retseptiv ish formalari amalga oshirilishi, ya'ni gapirishdan oldin tinglash, yozishdan oldin esa o'qish kerak, degan xulosa chiqaradi[9]. Sharq pedagogikasida, xususan, Alisher Navoiy va Abu Rayhon Beruniy asarlarida inson bilan muloqotda lutf, muloyimlik va o'zaro hurmat tamoyillari ulug'lanadi. O'quvchilarda muloqot madaniyatini milliy qadriyatlar (kattalarga hurmat, mehmondo'stlik, bag'rikenglik) asosida shakllantirish ularda ijtimoiy xavotirni bartaraf etishga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari (ertak, topshmoq,

maqol, latifa, lof) bolaning ruhiy olamini tinchlantirish va unda dunyoga nisbatan ishonch uyg'otish vositasidir. Muloqot jarayonida foydalanish samarali natijani beradi. Jamoaviy mehnat va o'yinlar orqali "Birimiz hammamiz uchun" tamoyili asosida bola jamoada o'z o'rnini topadi[10].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori xavotir nafas olishning buzilishi va mushaklardagi kuchli taranglik bilan namoyon bo'ladi. Nutqiy nafasni to'g'ri shakllantirish nafaqat nutq ravonligini ta'minlaydi, balki asab tizimini tinchlantiradi. Dars jarayonida o'quvchilar bilan ma'lum bir daqiqa mushaklarni navbat bilan taranglashtirish va bo'shashtirish orqali stressni chiqarish mumkin. Yoki chizish, loy bilan ishlash, musiqa tinglash orqali ichki kechinmalarni tashqariga chiqarish mumkin.[11]. O'quvchidagi xavotirni faqat maktab sharoitida yo'qotib bo'lmaydi. Oila muhitidagi haddan tashqari g'amxo'rlik yoki aksincha, e'tiborsizlik bolaning o'ziga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi. Shuning uchun ota-onalar bilan psixologik treninglar tashkil etish, boladagi xavotir belgilarini tanish va unga uyda yordam berish usullarini o'rgatish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muloqotga kirishish istagining psixolingvistik tabiati shunchaki o'quvchining til bilish darajasi emas, balki til tizimi va nutqiy faoliyat o'rtasidagi ko'p qirrali psixolingvistik ko'prikdir. U muayyan vaziyatda xorijiy tilda nutqiy muloqotni boshlash yoki unda ishtirok etishga bo'lgan ichki tayyorgarlik va intilishni ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lisoniy ya'ni lingvistik bilimlar mukammal bo'lsa-da, psixolingvistik tayyorgarlik bo'lmasa, o'quvchi amaliy muloqotdan qochish tendensiyasiga ega bo'ladi. Muloqotga kirishish istagining psixolingvistik ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar mavjud bo'lib, ingliz tili darslarida o'quvchilarning muloqot faolligini belgilovchi eng asosiy psixolingvistik omillar sifatida shaxsiy motivatsiya, idrok etilgan kommunikativ kompetensiya ya'ni o'z til imkoniyatlariga ishonch va nutqiy xavotir aniqlandi. O'quvchining muloqotga kirishish istagi statik o'zgarmas xususiyat bo'lmay, balki dars muhiti, o'qituvchi va tengdoshlar bilan munosabat, shuningdek, mavzuning qiziqarliligiga qarab dinamik ravishda o'zgarib turadi.

Kommunikativ va interfaol metodlarning samaradorligi ayniqsa, an'anaviy grammatik-tarjima metodidan farqli o'laroq, kommunikativ yondashuv va interfaol metodlar (rol o'yinlari, keys-stadi, loyiha ishlari, juftlikda va guruhda ishlash) o'quvchilarda nutqiy ehtiyojni sun'iy ravishda emas, balki tabiiy ijtimoiy ehtiyoj sifatida yuzaga keltirishi isbotlandi. Bu metodlar o'quvchini dars markaziga olib chiqib, passiv tinglovchidan faol muloqotchiga aylantiradi[12]. Nutqiy xavotirni kamaytirish va ishonchni shakllantirishda xorijiy tildagi muloqot samaradorligiga eng katta to'siq bo'luvchi omil - bu "xato qilishdan qo'rqish" va lingvistik xavotirdir. Tadqiqotda ishlab chiqilgan strategiyalar shuni ko'rsatadiki, darslarda "xatolarni doimiy va keskin tuzatish" modelidan voz kechib, mazmunga e'tibor qaratish, ijobiy psixologik iqlim yaratish hamda o'quvchilarni rag'batlantirish ularning affektiv to'siqlarini parchalaydi va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada oshiradi. Muloqotga kirishish istagini tizimli rivojlantirish uchun maxsus integratsiyalashgan topshiriqlar banki xizmat qiladi. O'quvchilar faoliyatini shunchaki grammatik aniqlik bo'yicha emas, balki ularning muloqot tashabbuskorligi, fikrni yetkazib bera olish darajasi bo'yicha baholash mezonlarini joriy etish lozim. Shu bilan birga, har bir dars yakunida qo'llaniladigan refleksiya texnologiyalari masalan, o'z-o'zini baholash kundaliklari, yakuniy fikr almashish o'quvchiga o'zining lisoniy o'sishini ko'rishga va keyingi muloqot strategiyalarini ongli ravishda qurishga yordam beradi.

Zamonaviy ingliz tili ta'limi o'quvchiga shunchaki til qoidalarini o'rgatish bilan cheklanmasdan, unda real hayotiy vaziyatlarda muloqotga kirishish istagi va jur'atini tarbiyalashi shart. Ushbu ishda tavsiya etilgan metodik yondashuvlar, topshiriqlar tizimi va psixologik strategiyalar maktab tizimida ingliz tili darslarining kommunikativ sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raxmanova M. Q. O'quvchilarda chet tilini o'rganishdagi affektiv to'siqlar va ularni bartaraf etishning pedagogik strategiyalari. p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2020
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent: 2012.
3. Bobojonova G. K. Muloqotga kirishish istagi (WTC) konseptining psixolingvistik tabiati Xorijiy tillar O'zbekistonda, 2(49), 88-95. 2023.
4. Isaeva, E. V. Formation of readiness for foreign language communication in secondary school students. Abstract of a dissertation for the degree of candidate of pedagogical sciences. – St. Petersburg: 2018.
5. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika: o'quv qo'llanma. – Toshkent: 2014.
6. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya: Darslik. – Toshkent: 2010.
7. Ziyamuhammedov B. Kommunikativ pedagogika va uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni. Xalq ta'limi (5), 12-16. 2018.
8. Maxsudova M. A. Muloqot psixologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: 2006.
9. Sayidahmedov N. S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: 2003.
10. Yusupov O'. Q. Kontrastiv lingvistika va uning muammolari. – Toshkent: 2007.
11. Qodirov B. R. (2019). O'smirlik davrida xorijiy tillarni o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlari. Psixologiya. – Toshkent: 2019.
12. Tojiyeva M.X. Ingliz tili darslarida maktab o'quvchilarining muloqot kompetensiyasini shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni. – Toshkent: 2021.